

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA HUQUQSHUNOSLIK FANLARINI  
O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

To'yev Bahodir Baxtiyorovich

Buxoro viloyati yuridik texnikumi

“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi.

[baxodirtuyev@gmail.com](mailto:baxodirtuyev@gmail.com)

Hayitov Mironshoh Nuriddin o‘g‘li

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o‘quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12527727>

*Annotatsiya. Ushbu tezisda huquqiy professional ta'limdi rivojlantirish imkoniyatlari, shakllari, shuningdek, huquqiy ta'limdagi muammolar, ushbu muammolarni yechish usullari haqidagi qarashlar bayon qilingan.*

*Kalit so‘zlar: huquqiy ta'lim, ta'limdagi muammolar, huquqiy ta'lim tizmini yanada yaxshilash chora-tadbirlari.*

THE COST AND IMPORTANCE OF TEACHING LEGAL SCIENCES IN THE  
PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM

*Abstract. This thesis describes the views on the possibilities and forms of legal professional education development, as well as problems in legal education and ways to solve these problems.*

*Key words:* legal education, educational problems, measures to further improve the legal education system.

СТОИМОСТЬ И ЗНАЧИМОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК В  
СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Аннотация. В данной дипломной работе изложены взгляды на возможности и формы развития юридического профессионального образования, а также проблемы юридического образования и методы решения этих проблем.*

*Ключевые слова:* юридическое образование, проблемы образования, меры по дальнейшему совершенствованию системы юридического образования.

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib professional ta'limi tizimi uchun kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish muhim hisoblandi. Professional ta'lim tizimini mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik taraqqiyot tendensiyalarni, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini tadbiq qilgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, kasblar va mutaxassisliklar ta'lim standartlari talablariga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash muhim hisoblanib bu o‘z navbatida jamiyatimiz rivojining muhim bosqichidir. Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzlusiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatharining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta’minlashda kelajak uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustuvor vazifalar va yo‘nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzlusiz ta'lif tizimiga, shu jumladan, iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan professional ta'lif muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromadlari, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinnari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi.

Avvalo har bir inson, huquqiy tarbiyasini shakllantirish uchun davlat qomusuning mohiyatini bilishi, konisitutsiyadagi har bir qonunga amal qilishi lozimdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega ekan belgilandi<sup>1</sup>. Shaxsni kamol toptirish aynan ta'lif orqali amalga oshiriladi, bilim olish jarayonida uning muhim sifat va fazilatlari shakllanadi.

Intiluvchanlik, mustahkam qadriyatlar tizimi, odamiylik, bilimga chanqoqlik, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shular jumlasidandir.

Mazkur normada aynan shu qoidaning mustahkamlab qo'yilishi hisobiga mamlakat va jamiyat rivojining hozirgi bosqichidagi eng muhim ustuvor maqsadlarimizdan biri belgilab qo'yildi, desak ayni haqiqat. Zero, aynan har bir shaxs kamoloti orqali jamiyat taraqqiy topadi, shu tufayli oldimizga qo'ygan eng oliv va ezgu niyatlarimizga yetishamiz.

Bundan tashqari, amaliy huquqiy tayyorgarlikka e'tibor kuchaytirilib, talabalar amaliyot o'tash va boshqa amaliy o'quv imkoniyatlari orqali tajribaga ega bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekistonda yuridik ta'lifni modernizatsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlarning yana bir muhim jihatni yangi yuridik makteblarning tashkil etilishi bo'ldi. Mamlakatimizda yuridik ta'lif sifatini yanada oshirish maqsadida xorijiy oliv o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga ham harakat qilmoqda. Masalan, 2019-yilda Buyuk Britaniyaning Vestminster universiteti Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan yangi huquq fakultetni tayyorlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha shartnoma imzoladi. Xuddi shunday, Toshkent davlat yuridik universiteti Yevropa Ittifoqi, AQSH, Rossiya, Turkiya, Xitoy va Yaponiya universitetlari bilan hamkorlik qilib, talabalarga xalqaro ta'lif va hamkorlik imkoniyatlarini taqdim etadi.

O'zbekiston huquq tizimini, jumladan, yuridik ta'lifni isloh qilish va modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar XXI asr talablariga javob bera oladigan yurist kasbini shakllantirish yo'lidagi ijobjiy qadamdir. Yangi o'quv dasturlarining joriy etilishi, hududlarda huquq fakultetlarning tashkil etilishi, xorijiy oliv o'quv yurtlari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi natijasida mamlakatimizda huquqiy ta'lif sifati yaqin yillarda butunlay yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;

Umumiy qilib aytganda, yuridik ta’lim yurtimizda kuchli va samarali huquq tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Mamlakatimiz so‘nggi yillarda muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsa-da, yuristlarning mamlakat oldida turgan murakkab huquqiy muammolarni hal qilish uchun etarli darajada tayyorlanishi hal qilinishi kerak bo‘lgan jiddiy muammolar mavjud.

Yuridik ta’limga sarmoya kiritib, bu muammolarni hal etish orqali O‘zbekiston o‘z huquq tizimini mustahkamlashi, qonun ustuvorligini ta’minlashi, barcha fuqarolarning odil sudlovdan foydalanishini ta’minlashi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki Respublikamizda imkoniyatlarning son-sanog‘i yo‘q, yoshlardan talab etiladigan yagona talab esa bu o‘qish,o‘qish va yana o‘qishdir. To‘g‘ri bizning yurtimizda talim sifatini yaxshilash va Yevropa standartlarini joriy etish uchun juda ko‘p islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo bular o‘z samarasini berish uchun albatta yoshlardan shunga mos harakat qilishlari o‘qishlari va rivojlanishlari lozim.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 0.07.2023-y., 07/23/216/0457-son;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “Ozbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5987-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2024-y., 06/24/80/0364-son;
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-son Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/648/0929-son;
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 163-son Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son.

## Internet saytlari

6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
7. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
8. [www.huquqiportal.uz](http://www.huquqiportal.uz)